

**BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL  
QILISHDA TARAQQIYOT STRATEGIYASINING O'RNI**

*TDIU Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti talabasi*

**Abdiraimova Sabrina**

*TDIU Xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi*

**Xikmatov Dilshodjon**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda Buxgalteriya hisobi va audit xalqaro standartlariga o'tish masalalari, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi PQ-4611-sonli qarori asosida buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga muvofiq uyg'unlashtirish, hisobotlarni tuzish tartibi, uning amaliyotda qo'llanilishi va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga O'tishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarining amaliy tahlili keltirilgan. Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar o'z ifodasini topgan.

**Annotation:** *In this article, the issues of transition to international standards of accounting and auditing in Uzbekistan, in particular, the President of the Republic of Uzbekistan on February 24, 2020 "Additional measures for transition to international standards of financial reporting" are discussed. on the basis of Decision No. PQ-4611 on the harmonization of national accounting standards in accordance with the International Financial Reporting Standards, the procedure for drawing up reports, its application in practice, and a practical analysis of the problems and ways to overcome them in the transition to international financial reporting standards. Also, the article contains the scientific proposals and practical recommendations formulated by the author on this issue.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются вопросы перехода на международные стандарты бухгалтерского учета и аудита в Узбекистане, в частности постановление Президента Республики Узбекистан от 24 февраля 2020 года «Дополнительные меры по переходу на международные стандарты финансовой отчетности». на основании Решения №. PQ-4611 о гармонизации национальных стандартов бухгалтерского учета с Международными стандартами финансовой отчетности, порядке составления отчетности, его применении на практике и практическом анализе проблем и путей их преодоления при переходе на международную финансовую отчетность стандарты. Также статья содержит научные предложения и практические рекомендации, сформулированные автором по данному вопросу.*

**Kalit so'zlar:** *Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti, iqtisodiy strategiya, buxgalteriya, audit, innovatsiya, innovatsion rivojlanish, boshqaruv tuzilmasi.*

## KIRISH

Hozirgi paytda mamlakatimizni yanada isloh qilishimiz uchun har bir sohada rivojlantirishimiz lozim. Darhaqiqat mamlakatimizni iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy tomonlama rivojlantirish, uni modernizatsiya qilish, aholi farovonligini ta'minlashda mustahkam poydevor bo'ladi deb o'ylayman. Shunday ekan mamlakatimizni yanada rivojlantirishimiz uchun jahon tajribasidan oqilona foydalanishimiz va shu bilan bir qatorda amalda to'g'ri qo'llay olishimiz lozim. Har jabhada innovatsion g'oyalardan foydalanib, buxgalteriya va audit sohasini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qisqa vaqt mobaynida O'zbekistonning savdo, investitsiya, energetika, transport, kommunikatsiya, madaniy-gumanitar almashinuv, turizm kabi deyarli barcha sohalarda juda jadal va ko'p qirrali rivojlanishi kuzatilmoqda.

Barchamizga ma'lumki, inson ehtiyoji uchun zarur bo'lgan narsalar, buyumlar qaysi davrda va mamlakatda yoki shaharda paydo bo'lishidan qat'iy nazar ma'lum bir zaruriyat tufayli yuzaga keladi. Auditga oid manbalarda ta'kidlanishicha, uni quyidagilar yuzaga keltirgan:

Axborot yetkazib beruvchilar (ma'muriyat) bilan axborotlardan foydalanuvchilar (davlat organlari, banklar, aksiyadorlar, kreditorlar) manfaatlarining mos kelmasligi, natijada, ular o'rtasida ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganida ma'muriyat tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar berilishi;

Noto'g'ri axborotlarga asoslangan holda xo'jalik qarorlarining qabul qilinishi natijasida noqulay iqtisodiy ahvolga tushib qolinishi yoki inqirozga yuz tutilishi;

Iqtisodiy axborotlarning haqqoniyligini tasdiqlash uchun zarur maxsus bilimlarga ehtiyoj;

Axborotlardan foydalanuvchilarda ma'lumotlarni bevosita baholash va sifatini aniqlash uchun maxsus malaka, vaqt va materiallarning yetishmasligi.

Shu kabi muammolarni hal qilishda yordam beradigan auditorlik xizmatlari shakllana boshladi. Uning asosiy vazifasi axborotlardan foydalanuvchilarga taqdim qilinadigan hisobotlar to'g'risida fikr-mulohazalar bildirishdir. Auditorlar yetarli bilim va tajribaga, shuningdek, buxgalteriya hisobi hujjatlari va asoslovchi ma'lumotlarni olish huquqiga ega bo'lganliklari uchun bu vazifani malakali darajada bajaradilar. Bundan tashqari, ular korxonaga ma'muriyatiga bo'ysinmaydigan va uning tazyiqlaridan xolidirlar. Auditorlik kasbi turli xil mamlakatlarda turlicha nomlanib kelingan. Masalan, Amerikada jamoatchi-buxgalter, Fransiyada buxgalter ekspert yoki schyotlar bo'yicha komissar, Germaniyada xo'jalik nazoratchisi yoki kitoblar (Das Buch) nazoratchisi. Rim imperiyasi davrida moliya va sudlov ishlarini olib boruvchi mansabdor shaxslar joylardagi hukumat buxgalterlari ustidan nazorat qilib turganlar. Kvestorlarning hisobotlari Rimga yuborilib, imtihon qiluvchilar

tomonidan eshitilgan. «Auditor» so'zi lotincha «eshituvchi» degan ma'noni anglatadi. «Audit» tushunchasi esa lotincha bo'lib, «auditing» - aynan tarjimasida «u eshitayapti», «eshituvchi» degan ma'nolarni bildiradi.

Tarixdan ma'lumki, buxgalteriya va audit tushunchalari Amir Temur davrida ham yaxshi rivojlangan. Mamlakatni tartibga keltirish, uning obodonchiligi, xavfsizligini ta'minlash, nazorat qilish, saltanatni boshqarishda hisob va nazorat ishlarida foydalanilgan. Amir Temur har bir o'lkada bittadan vazir tayinlagan. Ular to'langan soliq miqdorini, soliq to'lovchilar ismini, soliq to'langan vaqtini yozib borishgan va o'z rahbarlariga hisobot topshirishgan. Hattoki, daraksiz yuqolgan kishilardan qolgan soliqlarni yoki meros va mol-mulklarni ham ro'yhatga olishgan. Bunday usullar albatta davlat barqarorligini ta'minlab beradi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Buxgalteriya hisobi va audit uslubiyoti boshqarmasi tuzilmasida vazirlikning boshqaruv xodimlari cheklangan soni doirasida uchta shtat birligidan iborat moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishni muvofiqlashtirish va e'lon qilinadigan moliyaviy hisobotlar sifatining tashqi nazorati bo'limi tashkil etilsin. O'z navbatida, Davlatimiz rahbari ham Temur davrida olib borilgan islohotlarni yo'lga quyganlar, bundan ko'rinib turibdiki, har bir iqtisodiy sohada puxta o'ylangan rejalar hamda kuchli nazorat o'z ifodasini topgan. Adam Smit Fransiyaga sayohat qilganida u fiziokratlar deb atalgan bir guruh Fransuz yozuvchilaridan ta'sirlangan. Ular iqtisodiyot sohalarining bir biriga bog'liqligini yaxshi tushunishgan va nazorat qilinmagan bozorlar ishlash mexanizmini tahlil qilishgan. Demak, rivojlantirish va takomillashtirish uchun, nazorat qilib turish kerak, shu bilan bir qatorda xatolarni yashirmasdan, uni tuzatish hamda xodimlarni tajribasini boyitish, malakasini yanada oshirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Auditorlarning vazifasi ham aynan dolzarb muammolar kelib chiqmasligini oldini olishdan iboratdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va Respublikamizda bozor iqtisodiyoti asoslarini mustahkamlashga yo'naltirilgan islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida bank-moliya tizimining barqarorligini ta'minlovchi audit xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda auditorlik faoliyatining rivojlangan g'arb davlatlaridagi nazariy va amaliy jihatlariga ham keng e'tibor qaratilganligi, milliy va xorijiy audit amaliyotidagi o'ziga xos farqli qirralar bayon etilganligi zamonaviylik talablariga javob berishidan darak beradi. Hozirgi kunda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini mamlakatimizda joriy qilish uchun ko'plab manbalarni topish mumkin. Bugungi kunda dunyo bo'ylab 150 dan ortiq davlatlar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanmoqda va har bir foydalanuvchi mamlakat ushbu standartlarga turli yo'llar bilan o'tgan. Barchamiz bilamizki, Xitoy Xalq Respublikasi markazlashgan davlat hisoblanadi. Xitoy Xalq Respublikasi moliyaviy nazorat va buxgalteriya hisobi standartlarini belgilash bo'yicha mas'ul organ hisoblanadi. Xitoy Xalq Respublikasining maxsus ma'muriy hududi sifatida Gongkong, Pekin hamda Makao hududlari o'zining maxsus standartlariga ega, shunga ko'ra ular uchun alohida yurisdiksiya profillari mavjud. O'zbekiston Xitoy davlati bilan nafaqat iqtisodiy, moliyaviy diplomatic aloqalarni, balki, ta'lim sohasida ham mustahkam aloqalarni

yo'lga quygan. O'zbekiston Respublikasi aholisining 60% izidan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Yoshlar vatanimiz ravnaqi uchun mustahkam poydevor bo'lishadi. Shuning uchun yoshlarga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish lozim. Albatta bugungi kunda yoshlarga ko'pgina imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Xitoy davlati ta'lim yunalishiga alohida e'tibor beradi, eng ko'p ta'lim sohasiga investitsiya kiritadi. Hozirgi kunda Xitoy O'zbekiston talabalari uchun ham ta'lim grantlari e'lon qilmoqda. Ushbu grantlardan foydalanib, chet el tajribasini o'rganib o'z yurtimizni rivojiga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Ko'pgina yoshlarimiz Xitoyda grand sohibiga aylanishdi va u yerda buxgalteriya va audit sohalarida o'z ko'nikmalarini oshirib, yana vatanimizga qaytib kelib, yurtimizda o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar.

Zamonaviy buxgalter va har bir rahbar yoki xodim tomonidan bank yoki kompaniyani yuksalishi va moliyaviy sivilizatsiyasini ta'minlashida duch kelinayotgan iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni hal qilishda o'z buxgalterlariga ishonch hosil qilgan holda, ularni yuqori malakasi va ish tajribalari xalqaro amaliyot, ya'ni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga tayanib eng yaqin yordamchi deb qarashi zarur. Bu esa respublikamiz iqtisodiyoti yanada rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylanadi.

*MHXS bo'yicha faoliyat yuritayotgan yurisdiksiyalar soni mintaqalar kesimida<sup>20</sup>*

<b>Mintaqalar</b>	<b>Yurisdiksiya (bo'lim)lar soni</b>	<b>Jami foiz</b>
<b>Yevropa</b>	44	26%
<b>Afrika</b>	38	23%
<b>Yaqin Sharq</b>	13	8%
<b>Osiyo va Okeaniya</b>	35	21%
<b>Amerika</b>	37	22%
<b>Jami</b>	167	100%

**1-jadval**

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda MHXS standartlarining 167 ta yurisdiksiyasi dunyo bo'ylab faoliyat yuritmoqda. Bu esa albatta jahon miqyosida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining qanchalik darajada ildiz yoyib borayotganini namoyon etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Xitoy bu – dunyoning ikkinchi eng yirik iqtisodiyoti. 2030-yillardan keyin esa katta ehtimol bilan dunyoning birinchi raqamli iqtisodiyotiga aylanadi. Bundan tashqari, Amerika Qo'shma Shtatlari bilan harbiy, iqtisodiy, ilmiy shu bilan bir qatorda siyosiy sohalarida ham bimalol raqobat qila oladigan yagona mamlakat hisoblanadi. Xitoy tajribasidan foydalanishimiz Xitoyda talim olib kelib, malakali kadrlarni, auditorlarni tayyorlashimiz lozim. va ishonamanki, O'zbekiston-Xitoy munosabatlari mamlakatimiz iqtisodiy takomillashuvida o'z natijasini ifoda etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

<sup>20</sup> IFRS.org

1. Островский А. Китайский проект «Экономический пояс Шелкового пути» как путь к международномуэкономическому сотрудничеству // Азия и Африка сегодня. – М.: 2016 г
2. С.Г.Лузянинб, В.А.Никонов «Россия – Китай формирование обновленного мира» Москва. 2018 г
3. Audit asoslari. Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darlik / K.B. Ahmadjonov, LL Yakubov; O'zbekiston Respublikasi oliyva o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: 2010, - 288 b
4. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi ;SH.X.Tashmatov;Toshkent-2021

#### FOYDALANILGAN SAYTLAR:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-buxgalteriya-hisobini-xalqaro-standartlarga-muvofiqlashtirish/viewer>
2. [https://e-library.namd.u.uz/65%20%D0%98%D0%B\\_A%D1%82%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%B4/20-Audit%20asoslari/27-20%20Audit%20asoslari.pdf](https://e-library.namd.u.uz/65%20%D0%98%D0%B_A%D1%82%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%B4/20-Audit%20asoslari/27-20%20Audit%20asoslari.pdf)
3. file:///C:/Users/hp/Downloads/Telegram%20Desktop/Iqtisodiy%20talimotlar%20tarixi.pdf